

O'ZBEK KINO SAN'ATIDA MILLIY SERIALLARNING O'RNI

Qodirov Ulug'bek Nosir o'g'li

O'zbekiston Kinematografiya agentligi aktyori.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek kino san'atida milliy seriallarning tutgan o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Milliy seriallarning shakllanish jarayoni, ularning badiiy-estetik xususiyatlari, dramaturgik qurilishi hamda ijtimoiy-madaniy funksiyalari o'rganiladi. Shuningdek, seriallar orqali milliy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlarining aks etishi, tomoshabin ongiga ko'rsatilayotgan ta'sir mexanizmlari tahlil qilinadi. Maqolada milliy seriallarning o'zbek kino sanoati rivojidagi o'rni, ularning ommaviy madaniyatdagi ahamiyati va istiqbollari ilmiy asosda yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *milliy serial, o'zbek kinosi, badiiylik, dramaturgiya, obraz, milliy qadriyatlar, ommaviy madaniyat, audiovizual san'at, estetik ta'sir, ijtimoiy ong.*

Аннотация: *В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется роль национальных сериалов в узбекском киноискусстве. Рассматриваются процессы формирования национальных сериалов, их художественно-эстетические особенности, драматургическая структура и социально-культурные функции. Особое внимание уделяется отражению национальных ценностей, традиций и обычаев, а также механизмам воздействия на сознание зрителя. В статье обосновывается значение национальных сериалов в развитии узбекской киноиндустрии, их место в массовой культуре и перспективы дальнейшего развития.*

Ключевые слова: *национальный сериал, узбекское кино, художественность, драматургия, образ, национальные ценности, массовая культура, аудиовизуальное искусство, эстетическое воздействие, общественное сознание.*

Annotation: *This article provides a scientific and theoretical analysis of the role of national television series in Uzbek cinema. It examines the formation of national series, their artistic and aesthetic features, dramaturgical structure, and socio-cultural functions. Particular attention is given to the representation of national values, traditions, and customs, as well as the mechanisms of influence on audience consciousness. The study highlights the importance of national series in the development of the Uzbek film industry, their place in mass culture, and their future prospects.*

Keywords: *national television series, Uzbek cinema, artistic value, dramaturgy, character, national values, mass culture, audiovisual art, aesthetic impact, social consciousness.*

San'at zamon talablariga mos rivojlanayotgan davrda kino san'atining turli yo'nalishlari bilan bir qatorda seriallarni ham isloh qilish borasida muayyan ehtiyojlar yuzaga kelmoqda. Bu holatni rivojlangan G'arbiy Yevropa, O'rta Osiyo mamlakatlari, shuningdek, AQSH va Rossiyada ham kuzatish mumkin. Bu filmlar kinematografiyadagi alohida, o'ziga xos soha sifatida taraqqiy etib, auditoriya doirasini muntazam ravishda kengaytirayotgani quvonarli holdir. Mazkur yo'nalishning takomillashuvi hamda ommalashuvida yuzaga kelayotgan turli muhim nazariy va amaliy muammo hamda izlanishlarni chuqurroq tadqiq etish, shuningdek, qulay konstruktiv yechim topish dolzarblik kasb etmoqda.

So'nggi yillarda bu yo'nalishda kino san'atida yaratilgan va kun sayin rivojlanib borayotgan ilmiy jihatdan o'rganish kinoshunoslik uchun dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Kinoijodkorlar tomonidan yaratilgan filmlardagi mavzularning yoritilishida betakror yondashuv va asarda ko'tarilgan muammoga o'ziga xos tarzda yechim topilishi keng jamoatchilik e'tiborini tortib kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan, kinoshunoslikda bu soha kinoning shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari, mazkur yo'nalishdagi filmlarni dramaturgiya hamda rejissura jihatidan chuqur tadqiq qilib, tahlilga tortishga zarurat sezilmoqda.

Milliy serial bu faqat so'zdagina, kiyimdagina milliy emas balki, mavzu, g'oya, amalda milliy bo'lishi kerak. Umumiy qilib ta'rif beradigan bo'lsam milliy serial, millatning yuzi bo'lishi kerak. O'zbek xalqi qanday xalq?- degan savolga javob bera oladigan, bizning turmush tarzimizni, oiladagi munosabatlarni, kiyinish madaniyatimizni, urf-odatlarimizni o'zida aks ettirgan bo'lishi lozim. O'zbekiston haqida tomoshabinga so'zlash va taassurot qoldirish birinchi galda muhim jixatlardan biri sanaladi.

Ilgari tomoshabinlar koreys millatiga butunlay boshqacha nazar bilan qarashardi. Koreys seriallarini ko'rgach ularga bo'lgan munosabat butunlay o'zgardi. Hozirda esa koreys seriallarini miriqib tomosha qilishadi va ularning urf-odatlari, turmush tarzi madaniyatiga juda qiziqishadi. Bizning milliy seriallarimiz ham, qaysi millat vakili tomosha qilishidan qat'iy nazar, o'sha millat vakilida bizning yurtga, xalqimizga, qadriyatlarimizga nisbatan hurmat va qiziqish uyg'otadigan darajada bo'lishi darkor. Serial oila davrasida ko'riladi. Shu boisdan butun oila a'zolari bilan tomosha qilishga mo'ljallangan, mentalitetimizga xos va mos, hayotiy voqealar bilan boyitilgan bo'lishi, serialga qo'yilgan asosiy shartlardan biri.

Serial – televideniye va kinematografiya sohalarining mahsuli bo'lib, bugungi kun televideniye olamini serialsiz tasavvur qilish qiyin. U nafaqat kino san'ati balki televideniye sohasida ham o'z o'rnini mustahkam egallab olishga ulgurgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Serial o'z navbatida televizion kanal reytingini ko'tarib turishi hamda tomoshabopligi bilan ham kinoning boshqa janrlaridan farq qiladi. Avvaliga ushbu

san'at turiga ko'ngilochar bir ermak sifatida qaralgan bo'lsa, bugungi kunga kelib u katta telebiznesga aylangan va dunyo televideniyasini zabt etgan san'at turidir.[4]

Serial (ing. serial – ketma-ket) – odatda katta va ko'p sonli epizodlardan iborat va bir nechta syujetlar qatoriga ega bo'lgan kino mahsuloti yoki televizion film. Shuningdek, televizion san'atning maxsus siklik shakli. Serial janri tomoshabinlarni uzoq vaqt davomida ekranga jalb qilish va epizodma-epizod tomoshabin qiziqishlarini saqlab qolishni maqsad qiladi. [5]

Televideniye paydo bo'lganidan so'ng, san'at olamida yangi janr – televizion dramaturgiya paydo bo'ldi. Umuman, dramaturgiya san'atiga yangilik kirib keldi. Teatrda spektakllar ko'p qismli emas. Nari borsa, ikki yoki uch qism bo'lishi mumkin. Lekin seriallarda qismlar soni cheklanmagan, istalgancha uzaytirish mumkin. Ko'p qismli filmlar dastlab Yaponiya va Hindistonda suratga olingan. Keyinchalik Amerika hududida serial ommalasha boshlaydi. Xususan, Meksika, Argentina, Braziliya seriallarini o'zbek tomoshabinlari ham katta ishtiyoq bilan tomosha qilgan. Masalan, “Santa Barbara”, “Izaura”, “Oddiy Mariya”, “Esmeralda”, “Muhabbat qahvasi”, “Gvadalupe”, “Yolg'on asirasi” kabi seriallar katta mashhurlikka erisha olgan. Ko'p qismli televizion asarlar esa tomoshabinni zangori ekranga muxrlab qo'yishi hech kinga sir emas. Demak, serial orqali har bir millat o'z haqiqatlarini ifoda etishi mumkin. Etibor qaratadigan bo'lsak, har bir mamlakat o'z tarixi, o'tmishi urf-odatlarini haqida seriallar yaratishga harakat qilishmoqda. Demak, bu san'atning targ'ibot borasidagi samaradorligi ham keng miqyosda tarqalish omili bo'la oladi.

Dunyodagi barcha televideniyelarning “boshidan o'tib”, bugungi kunda o'ziga alohida yo'l topib ketgan “ko'p qismli film – serial” deb atalmish yangi janr ham dastlabki paytlarda, eng avvalo, qisqa metrajli, bir qismli badiylashtirilgan, rol o'ynaladigan kinodan “o'sib” chiqqanini va bu janr bora-bora barcha televideniye studiyalari tajribasida eng ahamiyatli yo'nalishga tushib olganligini shu o'rinda eslash o'rinlidir.

Kinotanqidchilarning takidlashiga ko'ra, televidenie – badiiy-ifodaviy tizim sifatida shakllanar ekan, televizion san'at tilining paydo bo'lishi va o'ziga xos obro'ga ega bo'lishida ko'p qismli filmning ham roli bor. Agar televideniye kinematografiya bilan o'zaro munosabatlari tarixidan kelib chiqib gapiradigan bo'lsak, bunda televideniye tilining taraqqiy topishida uchta muhim bosqich mavjud bo'lganligini ko'ramiz: Birinchi bosqich: kinofilmlarning televideniye namoyish qilinishi; ikkinchi bosqich: televideniye ko'rsatish uchun filmni sozlash; uchinchi bosqich: eng muhim bosqich - televizion filmni yaratish bosqichi.

Ko'p qismli televizion asarning vujudga kelishi esa, televizion ijod tili va shakllarining vujudga kelishida yakunlovchi bosqich bo'lib qoldi. “Ko'p qismli film dunyo efirida shunchalik keng maydonga ega bo'ldi, kundalik teledasturlarda shunchalik keng o'rin egalladiki, endilikda bu filmlar zamonaviy insonning vaqtini shunchalik “ko'p

o'g'irlydigan" bo'ldi. Endilikda seriallar masalasini madaniy hayotimizdagi eng ahamiyatli voqea sifatida alohida o'rganishga to'g'ri keladi", - deb yozadi kinotanqidchi N.Zorkaya.[1]

Serial yoki teleserial, ko'p qismli televizion film degan so'zlar mazmunan bir-birini to'ldiradi. Teleserial deyilishining asosiy mohiyati televideniye uchun atalgan degan ma'noni anglatadi. Sababi, ko'p qismli filmlarni kinoteatrlarda ko'rish noqulay va televideniye serialni efirga uzatish uchun eng qulay vositadir.

Umumiy xususiyatlari nuqtai nazaridan filmga xos bo'lgani uchun serialni bir vaqtning o'zida kinematografiya mahsuloti ham deyish mumkin. Demak, seriallar kinematografiya qoidalariga mos ravishda televideniye uchun ishlab chiqariladi. Dunyoda ko'p qismli seriallar allaqachon muxlislarini topib ulgurgan bo'lsa-da, o'zbek kino va televideniye sohasiga birmuncha kechroq kirib kelgan. Bu voqea qanday sodir bo'lgani xususida turli manbalarda ma'lumotlarga ko'zimiz tushadi. Shunga ko'ra, 1995-yillarda Televideniye yozuvchi Ahmad A'zam bosh muharrir lavozimiga tayinlanadi. U teledramaturg va rejissyorlarni to'plab, "Biz nega o'zbek seriallarini yarata olmaymiz, o'zbek dramaturgiyasida nega serial asar yo'q"[2] degan fikrni o'rtaga tashlaydi.

Kinodramaturg Rixsivoy Muhammadjonov, rejissyorlar Meli Mahkamov, Mahkam Muhamedov, Mashrab Boboev, Haybat Aliev va Sharof Boshbekovlar bilan ochiq muloqot olib boradi. Shundan so'ng, o'zbek serialini yaratish borasida dastlabki rejalar tuziladi. Rejalarga muvofiq, dastlabki o'zbek seriallari g'arb yoki Amerika seriallariga xos maishiy mavzular, oilaning ichki kechinmalari, shahvoniy holatlarni aks ettirishdan qochishadi. Ular milliy seriallarni sharqona, milliy, o'zbekona qilib olishga qaror qilishadi. Dastlabki ijodkor ahli o'zbek seriallarini 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan tomoshabinlarga mo'ljallashga va dramaturgiya qonunlariga moslashtirishga harakat qilishadi. O'zbekiston Televideniyesida birinchi marta suratga olingan serial "Ko'ngil ko'chalari" bo'lib, unda bir o'zbek oilasi misolida millatning turmush tarzi, keksalar hayoti, mahallada yuz berayotgan voqealar, oilaning darz ketishi, farzand tarbiyasi va hayotdagi turli muammoli vaziyatlar hikoya qilinadi.

"Ko'ngil ko'chalari"... Haqiqatdan ham, inson zotining ko'ngli keng bo'ladi. Har xil ko'chaga kirishni xohlaydi. Insonning kirmagan ko'chasi yo'q, adashadi, qoqiladi, har xil so'qmoqlardan yuradi. Inson hayoti har xil kechinmalardan iborat. Mana shu kechinmalari bir oilaning taqdiriga bog'lab Mashrab Boboyev "Ko'ngil ko'chalari" serialinining ssenariysini tayyorlagan.

Serial ijodkorlari dastlab asar nima bilan boshlanishi va oqibati nima bilan tugashini bilmas edilar. Asarda bir oilada bir nechta farzand, sho'ro davrida katta lavozimda ishlagan kommunistning qismati, uning hayotda yo'l qo'ygan xatolari, xotin ustiga yana xotin olishi kabi qator voqealar aks ettiriladi. O'zi Bekobodda rahbarlik lavozimida ishlab xotini, bola-chaqasi Toshkentda qolgan holda bazi bir sabablarga ko'ra boshqa bir ayolga uylanadi, qiz

ko‘radi, bu qiz oqibatda voyaga etib, otaning katta lavozimda ishlaydigan o‘g‘li bilan tanishib qoladi, taqdir taqozosi tufayli munosabatlar chuqurlashadi. Ular aka-singil ekanligini bilmaydi. Chunki ota birinchi oilasiga bu sirni oshkor qilmagan. Aka bilan singil o‘rtasidagi munosabat sho‘ro davrida bo‘lib o‘tgan son-sanoqsiz hikoyalardan biridir.

“Ko‘ngil ko‘chalari” dagi mavzuning teranligi, kutilmagan munosabatlar, gunohi azimning oqibatlari nimalarga olib kelishi mumkinligi, bir oilaning boshiga tushgan kulfatlar tomoshabinni qiziqtirib qo‘ydi. Bir egri qadam tufayli, xiyonat tufayli xonadon azolari hayotning katta sinovlaridan o‘tadi. Ulardan omad yuz o‘giradi: biri esdan og‘adi, biri vazifasidan bo‘shatiladi, biri qamaladi. Xullas, barchasi tegishli jazosini oladi. Qahramonlar butun film davomida o‘z-o‘zini jazolaydi, vijdon azobida qoladi. Bu teleserialda voqealar nihoyasiga yetmagan bo‘lsada, asar qahramonlari Al-Buxoriy maqbarasini ziyorat qilib, qilgan gunohlarini yuvish iltijosi bilan, iymonga, e‘tiqodga sadoqat bilan film yakun topadi.

“Ko‘ngil ko‘chalari” teleseriali 51-qismda to‘xtab qoldi. U yana bir necha fasl davom etib, keyin yakun topishi kerak edi. Shunday bo‘lsa ham ikkinchi fasl tavba-tazarru bilan tugadi. Televizion dramaturgiyani milliy qilib olishga bizda ham katta imkon bor ekanligiga ishonch hosil qildik. Aslida serialni ovozlashtirish, pardozi-andoz qilish, qisqartirish kerak edi, ammo ijodkorlar bunga ulgurishmadi. Haqiqiy naturada ketgan serial efirga yetkazib berildi xolos. Bu asar Mashrab Boboyevning dramaturg sifatida o‘zbekona, milliy hayotimizga oid voqealarni, muammolarni ko‘tarib chiqishi uning dramaturgiya sohasida qilgan katta jasoratidir.

Shu tariqa, o‘zbek televideniyesi ijodkorlari ham o‘z tomoshabinlarining talab-istaklarini inobatga olib, melodrama (maishiy mavzuda), tarixiy va rivoyat mavzulariga xos bo‘lgan filmlar yaratishgan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Кино, театр, литература. Опыт системного анализа. — М., 2010.
2. Abulqosimova X. Kinoteledramaturgiya asoslari. – T.: O‘zDSMI, 2009.
3. Qo‘shshayeva I. Kino millat ramziga aylansa. -Toshkent: // Tafakkur, 2012, 2-son.
4. Haytmatova S, Tursunmetova R. Kinoshunoslik: kino san‘ati tahlili va tanqidi. –T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020.-164 b.
5. Haytmatova S. O‘zbekiston television kinosi sarchashmalar. –T.: Donishmand-Ziyo, 2025.-164 b.